

**O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK
MUNOSABATLARI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK
BOSQICHLARI**

Abdug'aniyeva Shahnoza Abduhakim qizi

Jizzax viloyati G'allaorol tumani 44-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Jamiyat rivoji, qadriyatlar va g'oyaviy yuksalishning shakllanishi insonni oliy qadriyat sifatida e'zozlash zarurligini ta'kidlaydi. Maktabgacha yoshdan boshlab o'quvchilarda qadriyatli munosabatni shakllantirish jarayoni ularni jamiyatga uyg'unlashtirishga va hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Inson qadriyatlari orqali jamiyat a'zolari tomonidan ma'qullangan xulqatvor me'yorlarini o'zlashtiradi va bu orqali hayotiy faoliyatga kirishadi. Shunday qilib, ijobiy nuqtai nazar va qadriyatlar yosh avlodda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlat: balog'at, psixologik yosh, sezgi, jismoniy, ruhiy buzilish, psixokorreksion rivojlantiruvchi mashqlar

KIRISH

O'quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki bu jarayon yoshlarda ma'naviy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Pedagogikpsixologik tadqiqotlar qadriyatli munosabatlar jamiyat talablariga, xalqning turmush tarzi va o'qituvchilarning yondashuvlariga bog'liq holda shakllanishini ko'rsatadi. Bu tajriba avval oila va maktab muhitida, so'ng jamiyatda mustahkamlanadi.

Mazkur jamiyatdagi rivojlanish g'oyaviy yuksalish va qadriyatlarning namoyon bo'lishiga keng yo'l ochmoqda. Shu tariqa, insoniylik sifatlarining namoyon bo'lishi jamiyatda insonning oliy qadriyat sifatida e'zozlanishiga imkoniyat yaratmoqda.





Bizning jamiyatimizda ijtimoiy rivojlanish taraqqiyotning negizini belgilaydi. Bugungi kunga kelib, jamiyatning taraqqiyotida insonning o'rni va ahamiyati, uning oliy qadriyat ekanligini anglash ehtiyoji kuchaydi. Chunki, "Inson – ijtimoiy mehnat asosida shakllangan tafakkur va nutqqa ega bo'lgan, mehnat qurollari yasash va atrof-muhitga faol ta'sir ko'rsata oladigan oliy darajadagi tirik mavjudot" hisoblanadi. Shuning uchun ham u oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan.

Demak, bugungi kunda jamiyatdagi eng qimmatli, qadrlanadigan fenomen inson va uning bunyodkorlikka asoslangan faoliyatidir. O'quvchilarda maktabdayoq insonga oliy qadriyat sifatida yondashish ko'nikmasini shakllantirish jamiyat hayotini ma'naviy jihatdan boyitishda alohida ahamiyatga ega. Chunki qadriyatlar jamiyatda kishilarni o'zaro hamkorlik qilishga undaydi. Uning yordamida shaxs jamiyat hayotiga uyg'unlashadi. Inson qadriyatlar yordamida jamiyat a'zolari tomonidan ma'qullangan xulq-atvor me'yorlarini o'ziga singdiradi hamda hayotiy faoliyatga kirishadi. O'sib kelayotgan yosh avlodda ijobiy nuqtai nazarlar, hayotiy ko'nikmalar qadriyatlarga yo'naltirilgan taqdirdagina vujudga keladi. Hozirgi mavjud vaziyatda o'quvchi-yoshlar sarosimaga tushmasligi, ularda xudbinlik kayfiyatining kuchaymasligi uchun ham, shaxslararo qadriyatli muloqot ko'nikmalarini egallashlari muhim.

Vatanni sevish, oilani muqaddas deb bilish, ajdodlarimizga nisbatan hurmat va e'tibor shular jumlasidan. Buning uchun o'qituvchi muayyan nuqtai nazarlarning yaxlitligiga erishishi, o'quvchilarda shakllantiriladigan qadriyatli munosabatlarning o'ziga xos jihatlari yaxshi bilishi lozim. Qadriyatli munosabatlar dastlab ota-onalar bilan farzandlar, o'qituvchi va o'quvchilar orasida vujudga keladi. O'quvchilarda qadriyatli munosabatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda o'qituvchilar shaxslararo munosabatlarga asoslanishlari lozim. O'qituvchi o'quvchilarning shaxs sifatida o'ziga xosliklarini namoyon qilishiga ko'maklashishi, o'z hayotiy nuqtai nazarlariga ega bo'lishlarini qo'llab quvvatlashi nihoyatda zarur hisoblanadi.



Pedagogika qadriyatni inson tomonidan qabul qilingan ideal, uning uchun muhim hodisa, tushuncha, munosabat sifatida tushunish keng tarqalgan. Shaxsning qadriyatli munosabati muammosi fanlararo muammodir. Falsafada “qadriyatli munosabat” tushunchasi obyekt-subyekt munosabatlari tizimida joylashgan ma’naviy faoliyat turlaridan biri sifatida talqin qilinadi.

M.S.Kagan qadriyatli munosabat shakl va mazmunga ega deb hisoblaydi: “mazmun – aniq qadriyaviy ma’no tug‘iladigan va u ishlaydigan umumiy sotsiomadaniy kontekstdan kelib chiqadigan dunyoqarashli-semantik, uning shakli esa – qadriyat ong tomonidan “ushlab qolinadigan” psixologik jarayondir” [81]. Sotsiologiyada “qadriyatli munosabat” shaxsiy ma’nolar tizimi asosida yotadigan individning ijtimoiy tajribasining ma’naviy sinishi sifatida namoyon bo‘ladi, u, o‘z navbatida, shaxsning o‘zi uchun uning hayotiy faoliyatida ahamiyatga molik bo‘ladi.

Psixologiyada “qadriyatli munosabat” tushunchasining quyidagi talqini keltirilgan: qadriyat munosabati – sub’ekt ehtiyoj va manfaatlari asosida obyektning muhimligi munosabati (B.G. Ananiev, V.V. Davydov, B.F. Lomov, S.A. Rubinshteyn va boshqalar konsepsiyalari).

Psixologlarning ta’biricha, shaxsni tushunish, unga qadriyatli munosabatda bo‘lish uchun avvalombor uning hissiyotlarini anglash lozim. Har bir o‘qituvchi o‘quvchilarni anglashi, ularda qadriyatli munosabat tajribasini samarali shakllantirishi uchun qadriyatlarning o‘ziga xos jihatlarini yaxshi bilishi talab qilinadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga e’tibor qaratarkan, ularning xulq-atvori, faoliyati, bilimlarining mavjud darajasini aniq baholay olishi muhim ahamiyatga ega. Qadriyatli munosabatlar o‘quvchilar qiziqishlarining ko‘rsatkichlari, ehtiyojlari, qarashlari va aqliy rivojlanishlarini mujassamlashtiradi. O‘quvchilarda hosil bo‘lgan qadriyatli munosabatlar tajribasi ularning xulq-atvori va istiqboldagi faoliyat yo‘nalishini belgilaydi. Har qanday fikr murakkab shaxsiy tajribaning mahsuli sifatida o‘quvchilarda qadriyatli munosabatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Agar o‘quvchilarda qadriyatli munosabatlar tajribasi shakllantirilmasa ular jamiyat a’zolari bilan shaxslararo munosabatga kirisha



olmaydilar. O'quvchilarda hosil bo'ladigan nuqtai nazarlar, dunyoqarash, qadriyatlarga oid bilimlar, ma'naviy ko'nikmalar, qadriyatli munosabatlarning asosini tashkil qiladi.

Pedagoglar hamda psixologlar shaxslararo munosabatlar doirasini o'rganar ekanlar, kognitiv, xulqatvorga asoslangan hamda affektiv munosabatlar doirasini ajratadilar. Kognitiv munosabatlar doirasida sub'ektning ob'ektni anglashi nazarda tutilsa, xulq-atvorga asoslangan munosabatlarda faoliyatning natijasi va hatti harakatlar sifatida tushuniladi. Affektiv munosabatlar doirasi esa, shaxsning holati bilan bog'liq barcha ko'rsatkichlarni mujassamlashtiradi. Jumladan, A.A.Bodalev shaxslararo munosabatlar doirasida tadqiqotchilik, amaliy hamda affektiv munosabatlarni ajratib ko'rsatadi. I.S.Kon esa, o'z tadqiqotlarida kognitiv, xulq-atvorga asoslangan, affektiv munosabatlar va ularning qismlari, Z.A.Zorina tadqiqotlarida esa boshqaruvchilik, affektiv va axborotli munosabatlarni ajratadi.

Ta'lim-tarbiyani yaxlit bir hodisa sifatida tushunish natijasida pedagogikada shaxs faoliyati va munosabatlar doirasining vujudga kelishi tarzida talqin etiladi. Ta'lim-tarbiyani o'quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish jarayoni sifatida talqin etar ekanmiz, bunda o'quvchilar ma'naviy rivojlanishga jalb etiladilar. O'quvchi ta'lim olish davomida tabiat va jamiyat xodisalarini o'z ongida aks ettirishi va uni tahlil qila olishi lozim. Bunda quyidagilarga alohida e'tibor qaratiladi: – ijtimoiy, ma'naviy-ahloqiy me'yorlarni o'zlashtirish imkonini beradigan o'quv materiallarini o'quvchilarga taqdim etish; – pedagogik jarayon maqsadiga moslashtirilgan vaziyatli, funktsional yondashuvlarni tatbiq qilish; – o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishlari, qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishga xizmat qiladigan yondashuvlardan foydalanish.

O'smirning yangi huquqlarga da'vosi, avvalo, kattalar bilan o'zaro munosabatlarning butun muhitiga oid bo'ladi. O'smir avval bajonidil bajaradigan talablarga endi qarshilik ko'rsata boshlaydi: uning mustaqilligini cheklashganda, vasiylik qilishganda, yo'naltirishganda, nazorat qilishganda, quloq solishni talab



qilishganda, jazolashganda, uning qiziqishlari, munosabatlari va fikrlari bilan hisoblashishmaganda u juda xafa bo'ladi va norozilik bildiradi. O'smirda o'z qadrini bilish hissi paydo bo'ladi va u o'zini kamsitish, mustaqillik huquqidan mahrum qilish mumkin bo'lmagan inson, deb biladi. Bolalikdagi kattalar bilan bo'lgan munosabat haqidagi fikrlari o'zgaradi va uning o'z kattaligi darajasi haqidagi tasavvurlari bilan mos kelmay qoladi. U kattalar huquqini cheklaydi, o'zinikini esa kengaytiradi.

XULOSA

Kattalarning o'z shaxsi va insoniylik qadrini hurmat qilishlarini xohlaydi, ishonch va mustaqillik namoyon etishga da'vo qiladi, ya'ni kattalar bilan ma'lum teng huquqlilikka va ularning shu narsani tan olishlariga erishishga harakat qiladi. O'smirlik davriga kimningdir xatti-harakatini imitatsiya - qilish xosdir. Ko'pincha ular o'zlariga tanish va yoqadigan kattalarning xatti-harakatlariga imitatsiya, taqlid qiladilar. O'smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qolishlari ham mumkin. O'smir katta odam, Shuningdek, chekuvchi, ichuvchi singari yangi rollarda o'zini noqulay his qiladi. Psixik rivoji jihatidan bolalarga yaqin, lekin ehtiyojlari jihatidan kattalarga yaqin bo'lgan o'smirda juda ko'p noqulay va tashvishga tushuvchi holatlar bo'ladi va ular o'smirda krizisni yuzaga keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov B.R. Sinf zukkolarini tanlash metodikasi (Yosh iste'dodlarini izlaymiz):

Metodik qo'llanma. T., 1998.

2. G'oziev E.G'. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). T., 1994.

3. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya: darslik. I, II kitob. T., 2002

4. Internet materiallari